

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 8-noyabr, № 229 (8852) Жума

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

SHAXS KAMOLOTINING UCH MUHIM YO‘NALISHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktablarda musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy vatanparvarlik fanlari sifatini oshirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Bu haqda 30-sentabr kuni Pedagogik mahorat milliy institutida o‘qituvchilar bilan bo‘lgan muloqotda aytilgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu uch yo‘nalishning shaxs kamolotidagi o‘rniga ahamiyat qaratib, ularni o‘qitishni takomillashtirish dolzarbligini ta’kidlagan edi.

Masalan, maktablardagi musiqa o‘qituvchilarining 21 foizi o‘rta maxsus ma’lumotli. Ba’zilarining o‘zi cholg‘u asboblarini chala olmaydi. Sababi musiqa o‘qituvchilarining amaliy malaka oshirish tizimi yo‘q, bu borada san’at maktablari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Madaniyat institutlari bitiruvchilari o‘qituvchilikka qabul qilinmaydi.

Shu bois maktablarda saboqlar sifatini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

Xususan, musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati baholanib, malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu yo‘nalish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari, o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi ishlab chiqiladi.

“Turon maktab teatri”ning ijobiy tajribasi asosida maktablarda “Iqtidor” havaskorlar badiiy jamoalari tashkil etiladi. Oliy ta’lim muassasalarining musiqa va san’at yo‘nalishi bitiruvchilariga maktablarda ishlashga ruxsat beriladi.

Hududlardagi musiqa va san’at maktablarini umumta’lim maktablariga tayanch maktab sifatida biriktirish, iqtidorli o‘quvchilarni kashf etish maqsadida muntazam ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish ham muhim. Maktablarda 22 ta olimpiya, 19 ta noolimpiya, 4 ta milliy sport turlari o‘rgatiladi. Lekin jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanmalar yo‘q. O‘quvchilarni seleksiya qilish tizimli emas.

Shuning uchun jismoniy tarbiya fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilib, o‘quv dasturlari takomillashtiriladi. Ushbu fan o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich hamma joyda maktab sport klublari tashkil etiladi. Bu yo‘nalishda ham o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi, maktablarning sport bo‘yicha reyting tizimi ishlab chiqiladi.

Bugun zamonning o‘zi har bir fuqarodan vatanparvar bo‘lishni taqozo etmoqda. Bunda, ayniqsa, harbiy xizmatchilar, chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari o‘rnak bo‘lishlari kerak.

Hozir maktablarda qariyb 10 ming nafar ana shunday pedagoglar faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin ularning 27 foizi nomutaxassis. 2 ming 750 ta maktabda ushbu fan uchun sharoit yetarli emas.

Shu bois endi chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o‘tadi. Endi bu vazifaga Qurolli Kuchlar zaxirasidagi harbiylar ishga qabul qilinadi.

Mazkur fan bo‘yicha yangi o‘quv dasturi va darsliklar yaratiladi. Har bir tuman va shaharda bittadan maktab negizida “Jasorat maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Mutasaddilar bu boradagi ishlarni tashkil etish rejalari yuzasidan axborot berdi. Oliy o‘quv yurtlarida mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglar tayyorlashni tubdan o‘zgartirish, malaka talablari va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

SUV XO‘JALIGI SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID LOYIHALAR DASTURI TAYYORLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Bugun dunyoda ekologik muammolar, tabiiy ofatlar ko‘payib bormoqda. Bizning mintaqamizga suv tanqisligi xavf solmoqda. Shu bois mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, bu ne’matni asrash bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda.

Jumladan, 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani evaziga 200 ming gektarda suv yaxshilandi, yiliga 450 million kubometr suv iqtisod bo‘lyapti. Fermer va klasterlar tomonidan ham 13 ming kilometr ichki tarmoq betonlandi.

Suv boshqaruvi isloh qilinib, tumanlarda suvni hisobga olish tizimi shakllandi, fermerlar suvni hisob-kitob qilishni o‘rgandi. Shaffof tizim yo‘lga qo‘yilgani natijasida bu yil yerga 2 karra ko‘p suv bordi, yana 6 milliard kubometr suv hisobi joyiga qo‘yildi.

Lekin hali dolzarb masalalar ko‘p. Masalan, klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har bir kubometr suvga respublika bo‘yicha o‘rtacha 212 so‘m xarajat qilinyapti. Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu 2-3 barobar qimmat.

Oxirgi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiya qilindi. Lekin o‘rta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi oshib ketyapti. Betonlash hisobiga yo‘qotish 10 – 15 foizga kamaygan bo‘lsa-da, 20 ta tumanda bu ko‘rsatkich yuqori.

Shu kabi muammolardan kelib chiqib, yig‘ilishda galdagi vazifalar belgilandi.

Joylarda hali betonlash zarur bo‘lgan 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanallar bor. Shu bois kelgusi yilda bu ishlarga 800 milliard so‘m ajratilishi qayd etildi.

O‘tgan yili texnika, ishchi kuchi va qum-shag‘aldan yordam bo‘lgani uchun betonlash xarajati 2 karra arzonlashgan. Pudratchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida sement yetkazib berish orqali tannarxni yana 20 foizga pasaytirish mumkinligi aytildi.

Yana bir jihat – betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Bu – kichik GESlar qurib, elektr olishga katta imkoniyat. Navoiy viloyatida 11 megavattli 148 ta shunday stansiya qurish boshlangan. Umuman, hududlarda 2 mingta mikroGES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 million kilovatt elektr olish mumkin.

Mutasaddilarga bu borada xususiy sheriklik shartlarini ishlab chiqib, tadbirkorlarga e’lon qilish topshirildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi yaxshi tajribalarni ko‘rsatib o‘tdi. Jizzax viloyatining Do‘stlik tumanida suv boshqaruvini “aqlli” tizimga o‘tkazish bo‘yicha 21 million dollarlik loyiha yakunlangan. Suv taqsimlanadigan 2 mingta nuqtaga hisoblagich va videokamera o‘rnatilgan. Bunda avtomatlashgan boshqaruv natijasida 20 foiz, sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash hisobiga yana 10 foiz suv tejaladi. Suv boshqaruvi xususiy sektorga berilib, fermerlar bilan kooperatsiya tuziladi. Ilk bor suvga oldindan to‘lov bo‘ladi.

Viloyat hokimlariga ushbu tizimni o‘rganib, suv ta’minoti og‘ir tumanlarda joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Bugungi kunda yerlarni sug‘orishga 1 ming 600 dan ziyod nasos stansiyalari ishlatilmoqda. Ular o‘ziga yarasha elektr energiyasi talab qiladi. Shu bois 2025-yil – suv xo‘jaligida “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘lishi belgilandi.

Xususiy sherik bilan tejamkor nasos va quyosh paneli o‘rnatib, 20 foiz elektr tejash mumkin. Masalan, xorazmlik dehqonlar shunday qilyapti. Shuningdek, quyosh paneli o‘rnatib, ehtiyojidan ortgan elektrni davlatga sotib, oyiga qo‘shimcha 7-8 million so‘m daromad olyapti.

Mutasaddilarga ushbu tajribani kengaytirishni rag‘batlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Respublika bo‘yicha 2 million gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingani natijasida o‘tgan yilning o‘zida 2 milliard kubometr suv tejalgan. Lekin ayrim dalalarda o‘rnatilgan uskunalar ishlamayapti.

Endi bu qat’iy nazoratga olinadi. Kelgusi yilda yana 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatiladi. Qoraqalpog‘istonda qo‘llangan lazerli tekislangan yerning har gektariga 1 million so‘mdan subsidiya berish tizimi endi Xorazmda ham bo‘ladi. Boshqa hududlarda ham lazerli tekislash kengaytiriladi.

Bahor va kuzdagi sel suvlarini yig‘ish – sohadagi yana bir manba. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida shunday inshootlar barpo qilib, 50 ming gektarda suv ta’minotini yaxshilash imkoni bor. “O‘zbekgidroenergo” kompaniyasi bu borada ikki yillik reja oldi.

Prezidentimiz suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish qilishning birdan-bir yo‘li raqamlashtirish ekanini ta’kidladi.

Nasos stansiyalariga onlayn nazorat va “aqlli” suv qurilmalari olib kelingan. Lekin ulardan olinadigan ma’lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo‘q. Suv iste’moli va hisob-kitobi o‘ta murakkab.

Shu bois vazirlik huzurida Suv xo‘jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi belgilandi. Unda suv iste’moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushiriladi.

Mutasaddilarga suv xo‘jaligida 2030-yilgacha bo‘lgan eng muhim loyihalar dasturini tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan vazirlar, hokimlar va soha mutaxassislarining fikr va takliflari eshitildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

U.B.QOSIMOVNI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Ulug‘bek Berdiqobilovich Qosimov** Surxondaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

Sh.K.ABDURAXMANOVNI ANDIJON VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Shuxratbek Kushaqbayevich Abduraxmanov** Andijon viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

Sh.Sh.ABDURAZAKOVNI NAMANGAN VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Shavkat Shokirdjanovich Abdurazakov** Namangan viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

A.A.MAXMUDALIYEVNI SIRDARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Akmaljon Azimjonovich Maxmudaliyev** Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

Turkiy davlatlar tashkiloti:

BARQAROR RIVOJLANISH, XAVFSIZLIK VA RAQAMLI KELAJAK SARI

6-noyabr kuni Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston rahbarlari hamda Vengriya Bosh vaziri ishtirok etdi. Majlisda TDT doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama etildi, tashkilotning joriy kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilindi, shuningdek, qator hujjatlar, jumladan, yakuniy deklaratsiya imzolandi.

Munosabat

Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olis va yaqin xorijiy mamlakatlar qatori turkiy davlatlar bilan munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Binobarin, asrimizning boshlariga kelib O‘zbekistonning turkiy davlatlar bilan munosabatlari birmuncha susaygani hech kimga sir emas. O‘zbekiston rasmiylari turkiy davlatlarning yuqori darajadagi uchrashuvlarida deyarli ishtirok etmay qo‘ygandi. Ammo Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosatda pragmatik va ochiqlik yo‘lidan bordi. O‘zbekiston o‘zi uchun manfaatli bo‘lgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi faolligini oshirdi. 2019-yil 14-sentabrda O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi. Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o‘sha yilning 15-oktabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining yettinchi sammitida mamlakatimiz ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi. O‘zbekistonning tashkilotga qo‘shilishini barcha a’zo mamlakatlar mamnuniyat bilan qabul qildi. Rasmiylar, ekspertlar xalqimizning turkiylar tarixidagi o‘rni, bugungi salohiyati va ahamiyatini e’tirof etdi.

2

XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOT UYG‘UNLIGI

Aholi salomatligini ta’minlash, tibbiy-sanitar yordam ko‘rsatish, turli xil, ayniqsa, surunkali kasalliklar profilaktikasi va ularni davolashda sifat, xavfsizlik hamda samaradorlik jihatidan amalda sinalgan, ota-bobolarimiz tomonidan qo‘llanib kelingan usullar, ya’ni xalq tabobati muhim o‘rin tutadi.

Yangi qonun

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish doirasida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida xalq tabobati usullaridan foydalanishning huquqiy bazasi shakllantirildi. O‘zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi tashkil etilib, xalq tabobatining usullari va yutuqlarini samarali hamda xavfsiz tarzda qo‘llash uchun birinchi navbatdagi shart-sharoitlar yaratildi.

2



TO‘QIMACHILIK SANOATI YUTUQLARI NAMOYISHI



Poytaxtimizdagi “CAEx” ko‘rgazma majmuasida O‘zbekistonda birinchi marotaba to‘qimachilik sanoatining uchta yirik – “Heimtextil”, “Texworld Tashkent”, “Apparel Sourcing Tashkent” xalqaro ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda.

Ushbu ko‘rgazmalarda uy to‘qimachilik va interyer matolari, zamonaviy kiyimlar uchun matolar, iplar hamda aksessuarlarning keng assortimenti o‘rin olgan.

Ko‘rgazma

E’tiborlisi, tadbir autsorsing hamda innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalariga e’tibor qaratgan holda tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqaruvchilarni birlashtirayotir.

Qariyb 4 ming kv.m.dan ortiq ko‘rgazma maydonida 250 dan ziyod ishtirokchilar o‘z stendlarini taqdim qilyapti.

Muhimi, mazkur namoyish to‘qimachilik va tikuvchilik mashinasozligi sohasidagi jahon ishlab chiqaruvchilarining yutuqlari va ishlanmalarini ko‘rib chiqish va namoyish etish platformasidir.

Ko‘rgazma bugun yakunlanadi.

“Xalq so‘zi”.

Sirojiddin VOHIDOV olgan suratlar.



www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 8-noyabr

Turkiy davlatlar tashkiloti:

BARQAROR RIVOJLANISH, XAVFSIZLIK VA RAQAMLI KELAJAK SARI



Iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi

Darhaqiqat, O‘zbekistonning tashkilotga a’zo bo‘lishi, hech shubhasiz, tabiiy va tarixiy jarayonlar ifodasi bo‘ldi. Keyinroq aynan O‘zbekistonning tashabbusi bilan tuzilma Turkiy davlatlar tashkiloti nomini oldi. O‘zbekiston tashkilot doirasida eng ko‘p va real tashabbuslarni ilgari surayotgan mamlakatga aylandi. Chunki TDTga a’zolik xalqimizning tub manfaatlariga to‘la javob beradi.

Tashkilotga a’zo mamlakatlarda mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi mavjud. Hozirgi kunda eksport hajmini oshirish, sarmoya jalb etish, ish o‘rinlari yaratish, ishsizlik muammolarini hal qilish, qashshoqlikka qarshi kurashish O‘zbekiston va tuzilmaga a’zo mamlakatlarning barchasi uchun asosiy muammolardan. Tabiiyki, bu formatdagi hamkorlik yanada integratsiyalashuv va ishlab chiqarish komponentlarini tartibga solish borasida yordam beradi va shunday bo‘lmoqda ham. Masalan, TDTga a’zo davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 1,9 trillion dollarga yaqinlashmoqda. Bu yiliga o‘rtacha 4,4 foiz o‘sish demakdir. Ushbu natija 175 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladigan davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan iqtisodiy o‘sish tufayli yuz beryapti.

2023-yilda TDT davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro eksport hajmi qariyb 35,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu ularning jahon miqyosida umumiy eksportining 6 foiziga to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkichlar tuzilmaning siyosiy emas, asosan, savdo-iqtisodiy uyushma ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, dunyo bilan tovar ayirboshlash hajmi 1,2 trillion dollarga yetdi. “Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” shiori ostida o‘tkazilgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlarning hayotga izchil tatbiq etilayotgani ham o‘zaro savdo hajmi o‘sishi, a’zo mamlakatlarda yuzlab qo‘shma korxonalar ochilishi, transport qatnovlari kengayishi, vizasiz tartib asosida turistlar oqimi tobora ko‘payishi, xalqlarimizning madaniy qardoshlik rishtalari mustahkamlanayotgani garovi bo‘lyapti.

O‘zbekiston Prezidenti TDTning 2019 – 2024-yillarda o‘tkazilgan sammitlarida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 60 dan ortiq amaliy tashabbuslarni ilgari surdiki, ularning ro‘yobi o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish va butun turkiy dunyo ravnaqini ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shadi.

Tinchlik hamda hamkorlik minbari

Keyingi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti to‘laqonli xalqaro tuzilma sifatida shakllanayotgani haqida turli ekspert doiralarda ko‘p gapirilyapti. U mintaqalararo va global ahamiyatga ega tinchlik hamda hamkorlik minbari hamdir. O‘zbekiston bu minbardan unumli foydalanmoqda. Davlatimiz rahbari turli mintaqalarda davom etayotgan qurolli mojarolarni to‘xtatishga chaqirish bilan birga, ziddiyatlar o‘chog‘iga aylangan davlatlar aholisiga gumanitar yordam ko‘rsatish borasida o‘z takliflarini bildirayotgani O‘zbekistonning tinchliksevar mamlakat sifatidagi nufuzini mustahkamlayapti.

Davlatimiz rahbari Bishkekda o‘tgan majlisda ham bugungi kunning dolzarb masalalariga samarali yechim topishga qaratilgan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Barchamiz guvoh bo‘lyapmiz, bugungi kunda jahon miqyosida ishonch inqirozi tobora avj olmoqda. Global xavfsizlikni ta’minlashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda va xalqaro huquq me’yorlaridan chekinish holatlari kuchaymoqda. Ana shunday sharoitda tashkilotning keyingi paytlarda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirayotgani, umumiy pozitsiyaga ega ekani ham g‘oyat ahamiyatli. Ayniqsa, Yaqin Sharqda uzoq vaqtdan buyon davom etayotgan Falastin – Isroil muammosining nihoyatda xavfli tus olgani barchani jiddiy xavotirga solmoqda. Qurolli to‘qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbonlar, jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda.

Davlatimiz rahbari mazkur ko‘p yillik nizoning yagona yechimi – xalqaro me’yoriy hujjatlar va rezolyutsiyalarga muvofiq, 1967-yildagi chegaralar asosida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil Falastin davlatini tuzish ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston, shuningdek, salkam yarim asrdan beri urush va nizolar tufayli azob chekayotgan afg‘on xalqi taqdiriga ham befarq emas. Ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p millatli Afg‘oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashning asosiy sharti ekanini yaxshi bilamiz. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e’tiboridan tobora chetda qolayotgandek.

> ***“Keyingi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti to‘laqonli xalqaro tuzilma sifatida shakllanayotgani haqida turli ekspert doiralarda ko‘p gapirilyapti. U mintaqalararo va global ahamiyatga ega tinchlik hamda hamkorlik minbari hamdir. O‘zbekiston bu minbardan unumli foydalanmoqda. Davlatimiz rahbari turli mintaqalarda davom etayotgan qurolli mojarolarni to‘xtatishga chaqirish bilan birga, ziddiyatlar o‘chog‘iga aylangan davlatlar aholisiga gumanitar yordam ko‘rsatish borasida o‘z takliflarini bildirayotgani O‘zbekistonning tinchliksevar mamlakat sifatidagi nufuzini mustahkamlayapti.”***

Mamlakatimiz yetakchisi TDT doirasida Afg‘oniston masalasida vazirlar va ekspertlar darajasidagi muntazam muloqot mexanizmini yo‘lga qo‘yish muhimligini qayd etdi. Afg‘onistondagi o‘tkir muammolarni hal etishda amaldagi hukumatga yordam ko‘rsatish, bu davlatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga keng jalb qilish, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarish masalalari, albatta, ko‘rib chiqilishi lozimligiga urg‘u qaratdi.


Zero, O‘zbekistonga mintaqaviy sheriklik va barcha qo‘shnilari bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida faol qatnashadigan, tinch va barqaror Afg‘oniston kerak. Rasmiy Toshkent ilgari surayotgan Transafg‘on temir yo‘lini barpo etish tashabbusi aynan mana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Muhimi, tashkilot o‘z e’tiborini iqtisodiyot, sarmoya va innovatsiya sohasiga qaratyapti. Yanada e’tiborlisi, TDT hech kimga qarshi qaratilgan emas. Shuning uchun tashkilotni siyosiylashtirmaslik yo‘lidan borishga harakat qilinmoqda. Davlatlar muhokamalarni pragmatik tarzda va o‘z manfaatlariga yo‘naltirilgan holda olib borishayotgani e’tiborga molik.

Transport tizimini rivojlantirish – strategik maqsadlardan biri

TDT ishtirokchi davlatlari o‘z oldilariga chuqur iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro transport bog‘liqligini rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsadlarni qo‘ygan. Bunga savdo-ishlab chiqarish salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradigan qo‘shma iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin. Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishi tez orada mintaqa davlatlari transport-logistika sanoatining lokomotiviga aylanishi mumkin. Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi eng qisqa transkontinental yo‘nalishlar turkiy davlatlar orqali o‘tadi. Shuning uchun ularning birlashuvi va integratsiyalashuvi nafaqat tranzit yuk tashish hajmi oshishiga olib keladi, balki Yevroosiyo qit’asining barcha mamlakatlari rivojiga faol hissa qo‘shadi.

Shuningdek, ushbu hamkorlikning istiqbollari va mazmuni ko‘p jihatdan milliy chegaralarni transport vositalari orqali kesib o‘tish jarayonini murakkablashtiruvchi turli to‘siqlarni bartaraf etish bilan bog‘liq. O‘zbekiston rahbari ilgari surganidek, O‘rta koridor bo‘ylab tranzit tariflarini maqbullashtirish, chegaralardan o‘tish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy logistika tizimlari va qo‘shma operatorlarni yaratish umumiy manfaatlarimizga to‘la javob beradi. Bu biznes xarajatlarini kamaytiradi, xalqaro savdo va tranzit tashish hajmini oshiradi. Transport infratuzilmasining takomillashuvi xorijdan investitsiyalarning sezilarli kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Tarif va notarif to‘siqlarni bartaraf etish, savdo-bojxona tartib-qoidalarini yengillashtirish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq bitim va kelishuvlar tashkilot doirasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini yaratishda ayni muddaodir. Shu munosabat bilan savdo yo‘nalishidagi salohiyatni kengaytirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borish uchun yaqin istiqbolda Toshkentda yetakchi tahlil markazlarining anjumanini o‘tkazish taklif qilindi.



Prezidentimiz axborot texnologiyalari sohasida ilg‘or tajriba va yutuqlarni almashish, innovatsiyalar, infratuzilma va ilm-fanning raqamli tizimlarini, yirik ma’lumotlar markazlarini yaratishga qaratilgan Raqamli turkiy dunyo konsepsiyasini ishlab chiqish tashabbusini bildirdi.

TDT doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik yo‘nalishi ham davlatlararo munosabatlarning nihoyatda muhim bo‘g‘ini. Bunda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning o‘rni beqiyos. 2023-yili TURKSOYning 30 yillik yubileyi tantanalari barcha ishtirokchi mamlakatlarda keng nishonlandi. U bilan hamkorlikda mamlakatimizda qator nufuzli xalqaro tadbirlar o‘tkazildi.

O‘tgan davr mobaynida Ostona, Turkiston, Eskishahar, Kastamonu, Bursa, Qozon, Mari, Sheki, O‘sh va Xivaning “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilingani ushbu qadimiy va go‘zal shaharlarimizning shon-shuhratini yanada oshirdi. A’zo davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda turkiy mamlakatlar madaniyati va san’ati kunlari, yoshlar va teatr festivallari, ijodiy forumlar uyushqoqlik bilan o‘tkazilmoqda. Tashkilot doirasidagi ilmiy-ma’rifiy anjumanlar, turkiy tillar va adabiyotlari rivojiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalarda mamlakatimiz olim va ijodkorlari faol qatnashmoqda.

Umuman, bu haqda uzoq gapirish mumkin. Amaliy ishlar ko‘lami behisob. Asosiysi, Turkiy davlatlar tashkiloti qardosh xalqlarning umumiy farovonligi va ravnaqi yo‘lida dadil qadamlar tashlayapti. Majlis davomida tarixiy hujjat – Turkiy dunyo xartiyasining qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlar o‘rtasida kuchayib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlikning yorqin ifodasidir. Savdo, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va kommunikatsiyalar, madaniy-gumanitar almashinuv borasidagi aloqalarni yanada kengaytirishga qaratilgan taklif va tashabbuslarning hayotiy ro‘yobi turkiy xalqlarning mushtarak maqsadlariga xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Sobitxon TURG‘UNOV,
Namangan davlat universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor.

QONUNCHILIK PALATASIDA



DAVLAT BYUDJETI KONSEPSIYASI MUHOKAMASI DAVOM ETMOQDA

Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar davom etmoqda.

Kuni kecha Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo‘mitalari, Hukumat tomonidan tuzilgan ishchi guruh a’zolari ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ham mazkur qonun loyihasi konseptual jihatdan muhokama qilindi.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasida ko‘zda tutilgan 2025 – 2027-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiya bilan belgilangan o‘rta muddatli davr uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari va xarajatlari hamda uzoq muddatli fiskal maqsadlar hamda ularga erishish uchun soliq hamda byudjet siyosatining o‘rta muddatdagi yo‘nalishlari bo‘yicha fikr-mulohazalari va takliflarini bildirdi.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasida ko‘zda tutilgan soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari jamiyat rivojlanishi, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi konsepsiyasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar davom etmoqda.

“Xalq so‘zi”.

XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOT UYG‘UNLIGI

O‘tgan davrda xalq tabobatining kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha samarali usullarini zamonaviy tibbiyot amaliyotiga jadal integratsiyalash, fuqarolar salomatligini yanada mustahkamlash, ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish borasida muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Prezidentimizning 2018-yil 12-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan xalq tabobati aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning qo‘shimcha usuli sifatida e’tirof etildi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi xalq tabobati usullarini qo‘llagan holda tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan talablarni, shuningdek, xizmat ko‘rsatish hajmi va tartibini belgilovchi vakolatli organ etib belgilandi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi hamda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida va Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarida Xalq tabobatini rivojlantirish markazlari tashkil etildi.

Yurtimizda ushbu sohada yaratilgan sharoit va keng imkoniyatlarga qaramay aholining soddadil, ishonuvchan ekanidan, qonunchiligimizda xalq tabobati sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun javobgarlik choralari nazarda tutilmagan. Oqibatda daromad orttirishni maqsad qilgan soxta tabiblar paydo bo‘la boshladi. Bunday hollarda aholimiz soxta tabiblarning qurboniga aylanishi, ushbu xizmatlarning oqibatlari esa fuqarolarning sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini inobatga olib, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha



va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Prezidentimiz tomonidan kuni kecha imzolangan mazkur qonun bilan fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini xalq tabobati sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan ko‘rsatganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi. Xizmatlarni xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo‘lish evaziga ko‘rsatganlik uchun ham ma’muriy javobgarlik nazarda tutildi.

Shu bilan birga, bunday xizmatlarni omma oldida targ‘ib qilganlik uchun ma’muriy javobgarlik o‘rnatilib, xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini reklama qilish qonun bilan taqiqlandi.

Mazkur hujjatning amaliyotga tatbiq etilishi O‘zbekistonda xalq tabobatini kasalliklar profilaktikasi, tashxis qo‘yish va davolashda zamonaviy tibbiyot bilan muvofiq holda qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Jumanazar OTAJONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BIRINCHI “YO‘L XARITASI” VA KENG IMKONIYATLAR

O‘zbekistonning TDTga to‘laqonli a’zo bo‘lib kirishi ushbu tuzilma rivojini yangi bosqichga olib chiqdi, desak, yanglishmaymiz. Zero, 2019-yildan boshlab, Prezidentimizning ko‘plab takliflari mazkur tashkilot tomonidan alohida inobatga olinib, amaliyotga joriy qilindi. Xususan, 2022-yilning 10-11-noyabr kunlari Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand shahridagi sammiti ko‘p ekspertlar tomonidan e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Aynan shu yili dunyoda geosiyosiy keskinlik nihoyatda taranglashgan, davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch darz ketgan paytda turkiy oila bo‘lib vujudga kelayotgan umumiy muammolarga nisbatan birgalikda yechimlar topib harakat qilish juda muhim edi.

Shu bois Samarqand sammiti yakunlari bo‘yicha 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Turkiy davlatlar tashkiloti strategiyasining qabul qilinishi muhim voqea bo‘ldi. Ushbu hujjat turkiy mamlakatlarning “Turkiy nigoh – 2040” konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi “Yo‘l xaritasi”dir.

Qayd etish joizki, TDT bilan hamkorlik O‘zbekiston manfaatlariga to‘la javob beradi. Tashkilot faoliyatining ilk yillarida, asosan, madaniyat va gumanitar sohalardagi hamkorlikka e’tibor berilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘zaro sheriklik ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Ayniqsa, transport-logistika, raqamlashtirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik, xavfsizlik masalalariga alohida ahamiyat qaratilyapti.



Keyingi yillarda tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasidagi eksport-import aloqalari hajmi yiliga 45 milliard dollardan oshmoqda. Jumladan, Transkaspiy xalqaro koridorining ahamiyati bugun har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etyapti. Barcha a’zo davlatlarning ushbu transport yo‘lagi orqali tashqi savdo yuklarini tashish hajmini oshirish, nafaqat TDT davlatlarining o‘zaro tovar aylanmasining ko‘payishiga, balki Yevropa va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning TDT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida bildirgan taklif va tashabbuslari turkiy dunyo taraqqiyoti hamda farovonligi yo‘lida ko‘p qirrali o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi mazmun bilan to‘ldirib, butun turkiy dunyo ravnaqini ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz rahbari o‘z nutqida transport koridorlaridan samarali foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratib, O‘rta koridor bo‘ylab tranzit tariflarini maqbullashtirish, chegaralardan o‘tish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy logistika tizimlari va qo‘shma operatorlarni yaratish umumiy manfaatlarimizga to‘la javob berishini qayd etdi.

Bu borada tashkilot doirasidagi tashuvlarda elektron hujjatlar aylanmasiga o‘tish va ularni o‘zaro tan olish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolashga chaqirdi. Bunday dolzarb masalalarni biznes vakillari ishtirokida atroflicha muhokama qilish maqsadida Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilari alyansi bilan hamkorlikda Xalqaro logistika konferensiyasini o‘tkazish taklif etildi.

Ushbu sammit va uning yakunida qabul qilingan muhim hujjatlar hamda qarorlar turkiy xalqlar farovonligi va taraqqiyoti yo‘lida ko‘p tomonlama munosabatlarni yangi mazmun bilan boyitadi.

Nodir TILAVOLDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Kuala-Lumpur shahrida IT va raqamli texnologiyalar sohasida O‘zbekiston – Malayziya ilk autsorsing forumi o‘tkazildi.

INVESTITSIYALAR –

IQTISODIY TARAQQIYOTIMIZ DRAYVERI

Tabiat insonga barcha maxluqotlardan farqli o‘laroq mukammal aql bergan. Ilmiy adabiyotlarda insonga “Numo Sapiens” – “aqlli maxluqot”, deb ta’rif berilgan. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy va ma’naviy” asarida aqllar o‘rtasidagi tafovutlar yorqin ochilgan.

– Aql borki, – deydi Jaloliddin Rumiy, – uni bamisoli quyoshga o‘xshatish mumkin. U butun olamni nurga to‘ldiradi, aql borki, miltirab yonayotgan shamga o‘xshaydi, uning shu’lasi sal nariga o‘tmaydi. Tasavvur qilib ko‘ring, milliard-milliard sham bir joyda, bir vaqtda yongani bilan quyosh bo‘la oladimi? Yo‘q, albatta.

Inson qanchalik aqlli bo‘lsa, shuncha ko‘p ilm o‘rgana oladi. Hazrat Alidan aql afzalmi, ilm afzalmi, deb so‘ralganda, aql, chunki ilm o‘rganish uchun aql kerak, deb javob berganlar. Ilm yaratish hammaning ham qo‘lidan kelmaydi. Akademik Yevgeniy Velixov “Ilm – bu hamma vaqt shaxs degani” deb uqtirgan. Shuning uchun almashtirib, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan olimlar yo‘q, deyishdan saqlanish lozim. Insoniyat tarixida o‘zining boy ilmiy-ma’rifiy merosi hamda mislsiz kashfiyotchilik faoliyati bilan umumbashariy taraqqiyot va jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan yuzlab benazir tarixiy siymolar o‘tgan.

Tahlil

Ilmiy salohiyat qanday o‘lchanadi?

Insonning aqliy salohiyati u o‘zlashtirgan yoki yaratgan ilmda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili ilmiy-texnikaviy inqilob bo‘lgan hozirgi davrda ilm yarata olish salohiyati har bir millat yoki mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rnini belgilab beradi.

Iqtisodiy rivojlanish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish kerak ekan, ilg‘or mamlakatlarda e’lon qilingan ilmiy tadqiqot natijalarini o‘zlashtirib olish mumkin-ku, barcha mamlakat ilm-fan bilan shug‘ullanishiga zarurat bormi, degan savol tug‘iladi. Bu savolga Yaponiya misolida javob berish mumkin.

Yaponiyada texnologik rivojlanish Koreys urushi (1950 – 1953-yillar)dan keyin boshlangan. 15 yil o‘tib Yaponiya iqtisodiyoti dunyoda 2-o‘ringa chiqqan va uni 2009-yilgacha saqlab turgan. 2010-yilda 2-o‘ringa Xitoy chiqib olgan. “Yapon iqtisodiyoti mo‘jizasi” mahsulot ishlab chiqarishga xorijdan litsenziyalar sotib olish, sifatli va arzon ishlab chiqarishni tashkil etishdan boshlangan. Biroq 60-yillar oxiriga kelib Amerika va Yevropa mamlakatlari yangi ishlanmalar litsenziyalarini sotishni to‘xtatib, sanoat ayg‘oqchiligiga qarshi kurashni kuchaytirgan. O‘zining texnologiyasini yangilashga urinish fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish hamda yangi texnologiyalarni yaratish jarayonida maslahat bera oladigan tadqiqotchilar sonini ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatgan.

Dunyoda ilmiy xodimlar soni 1996-yildan 2017-yilgacha 2-marta oshgan, 9 mln. kishi ilm yaratish bilan bevosita shug‘ullanadi, yana 6 mln. odam tadqiqotlar ta’minotiga jalb qilingan (aholi soniga nisbatan 0,18 foiz).

Amerika ilm-fan taraqqiyoti assotsiatsiyasining ma’lumotlariga ko‘ra tadqiqot va ishlanmalarga global investitsiyalar so‘nggi 20 yil ichida jadal o‘sib borgan. Bu investitsiyalar 1992-yilda 672 mlrd. dollarga teng edi. 2021-yilda 2,2 trln. dollarga yetgan. 2020-yilda boshlangan pandemiya oqibatlari bu o‘sishni sekinlashtirgan, 2020 va 2021-yillarda o‘sish avvalgi 10 yildagi 3.6 foizdan 2 foizga tushgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlar ilmiy tadqiqot ishlariga investitsiyalarni doimiy ravishda ko‘paytiryapti. 2001-yilda ularning investitsiyalari YAIMning 2,71 foiziga yetgan va buning 60 foizdan ortig‘i xususiy biznes sektori tomonidan amalga oshirilgan.

AQSHning ilmiy tadqiqot ishlari intensivligi 20 yildan ortiq vaqt davomida YAIMning 2,5 foizidan 3 foizigacha ko‘tarilgan. Janubiy Koreya va Xitoy ham so‘nggi 10 yil ichida sezilarli darajada o‘sdi. Janubiy Koreyaning bu yo‘nalishdagi investitsiyalari YAIMning 2,1 foizidan 4,6 foizga, Xitoyning investitsiyalari



esa 0,9 foizdan 2,2 foizga chiqqan. Germaniyada bu ko‘rsatkich YAIMning 3,2 foiziga teng.

“Naukometriya” fani predmeti nima?

Savol tug‘iladi: har bir mamlakat, ilmiy muassasa, ilmiy xodimning ilm yaratishga qo‘shgan hissasini aniqlash imkoni bormi? Bor, albatta, buning uchun raqamlarni hisoblash usullari va ularni qanday ishlatishni bilish kerak. Bilimi chuqur iqtisodchi tahlil qilinayotgan holat yoki jarayonni aniq tasvirlash uchun miqdor va sifat, natural hamda qiymat, absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlardan mohirona foydalana oladi.

> ***Har qanday mavzu bo‘yicha munozaralarda o‘zining fikrini asoslash uchun liriklar ham, fiziklar ham raqamlarga murojaat etishga majbur bo‘ladi. “Raqamlar shunday oynaki, u qiyshiq basharangni bor bo‘yicha aks ettirsa chiday olmaysan”, degan edi Onore de Balzak. Buyuk fizik olim lord Kelvin “Nima haqida gapirayotgan bo‘lsangiz uni o‘lchab, raqamlarda ifodalay olsangiz, siz uni bilasiz. Uni o‘lchashni bilmasangiz, sizning bilimingiz yetarli va qoniqarli emas” deydi.***

Har qanday mavzu bo‘yicha munozaralarda o‘zining fikrini asoslash uchun liriklar ham, fiziklar ham raqamlarga murojaat etishga majbur bo‘ladi. “Raqamlar shunday oynaki, u qiyshiq basharangni bor bo‘yicha aks ettirsa chiday olmaysan”, degan edi Onore de Balzak. Buyuk fizik olim lord Kelvin “Nima haqida gapirayotgan bo‘lsangiz uni o‘lchab, raqamlarda ifodalay olsangiz, siz uni bilasiz. Uni o‘lchashni bilmasangiz, sizning bilimingiz yetarli va qoniqarli emas” deydi.

Ilmni o‘lchash masalalarini o‘rganish, tahlil etish, muammolarini aniqlab, yechimlarini ishlab chiqish “Naukometriya” fanining predmeti hisoblanadi. Professor V. M. Nalimov ta’rifiga ko‘ra “Naukometriya” ilm rivojlanishini axborot jarayoni sifatida o‘rganishning miqdoriy usullaridir.

Ilm sohasida band bo‘lganlar salmog‘iga nisbatan tadqiqotlar va ishlanmalarga xarajatlarning ko‘proq o‘sib borishi mehnat unumdorligini oshirish, aholi turmush sifati va darajasini ko‘tarish uchun modellar va ishonchli ma’lumotlarga talab o‘sishiga olib keldi. Sabab-oqibat aloqalarini, joriy etilayotgan ilmiy siyosat natijalarini tahlil qiluvchi fanlar “Ilm va texnologiyalarni o‘rganish” (Science and Technology Stadies) degan umumiy nomga birlashtirilgan. “Naukometriya” “STS” fanlaridan biri bo‘lib, uning predmeti olimlar muloqotini kuzatishdan olingan faktlardan iborat bo‘ladi.

Qarorlar qabul qilish va oqilona natijaga erishish uchun ilmiy jarayon qatnashchilarini boshqarish va ularning harakatlarini tashkil etish ilmiy siyosat doirasida amalga oshiriladi. Ilmiy siyosat – boshqarishda maqsadlarni ishlab chiqish va resurslarni taqsimlashga oid steykxolderlarning turli manfaatlarini inobatga olish prinsiplari tizimi, deb ta’riflanadi.

Shaffoflik – eng yaxshi natijalarga erishish imkoniyati

Ilmiy siyosatni ishlab chiqishga xolisona yondashish siyosatni amalga oshirish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy tizim qanday holatga kelishini aniqlashi kerak. Tadqiqotchilar, menejerlar, olimlar ana shu tizimga mansub bo‘lib, qoidalar, konsepsiyalar hamda yondashuvlar ularga ochiq va shaffof bo‘lishi lozim. Tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash ilmiy siyosatni shakllantirish va qo‘llashda ochiqlik, shaffoflik eng yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

Bunday ilmiy muhit olimlarni ilm yaratish o‘rniga mavhum ifodalangan qoidalar va subyektiv qarorlarni tushunishga vaqt sarflashdan ozod qiladi. Ijodiy tashkilotni avtoritar boshqarish, shaffof bo‘lmagan va tushunarsiz ilmiy siyosat olib borish eng mahsuldor va samarali olimlarni yo‘qotib qo‘yish xavfini kuchaytiradi.

Tadqiqotlarga qancha ko‘p resurslar sarflansa, olingan natijalar asosida yangi texnologiyalar ishlab chiqish va joriy etish iqtisodiyotda shuncha ko‘p foyda berishiga ishonch ilmiy xodimlar soni va ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish xarajatlarini ko‘paytirishga undaydi.

To‘g‘ri, ilmiy maqolalar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan iqtisodiy o‘sishga olib kelmaydi. Iqtisodiy samara beradigan ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan texnologiyalarni yaratish va joriy etish uchun sharoit bo‘lmasa, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning foydasi yo‘q. Ilmiy natija olish, texnologiya ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash, iqtisodiy samaraga erishish jarayonining har bir bosqichiga manfaatlari turlicha bo‘lgan insonlar javob beradi. Shuning uchun olimlardan yangi ilm yaratish, texnologiya ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishni talab qilish natija bermaydi. Ilmiy texnologik samaradorlikka erishishning kaliti kutiladigan natijadan manfaatdor ishtirokchilarni ixtisoslashtirishdan iborat bo‘ladi. Bu ilmiy yangilik yaratish jarayonini barqaror takrorlanuvchi siklga aylantiradi.

Iqtidorli tadqiqotchi olimlar va menejerlar tayyorlanadi

Prezidentimizning 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni yangi ilm, yangi texnologiya yaratishga qodir iqtidorli tadqiqotchi olimlar va menejerlarni tayyorlashga qaratilgan. Farmonda ushbu konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari tasdiqlangan.

Ular ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan milliy reyting tizimini joriy etish, ilm-fanda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni tatbiq qilish, 2025-yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030-yilgacha esa 10 baravarga oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda kelgusi yilda o‘nta venchur jamg‘armani tashkil etish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o‘rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45 ga, 2030-yilgacha esa 39 ga tushirish, shuningdek, 2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o‘z kuchi bilan bajargan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 2030-yilgacha 9 baravarga oshirish ham nazarda tutilgani ayni muddao bo‘ldi. Zero, bularning barchasi kelgusida mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirib, xomashyo emas, ilm sig‘imi katta bo‘lgan intellektual mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini beradi.

Nuritdin YO‘LDOSHEV,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

SUV – HAYOT MANBAI

QUT-BARAKA KALITI TEJAMKORLIKDA

Dunyoda ro‘y berayotgan global isish va ekologik beqarorlik oqibatida bugun O‘zbekistonda ham suvga bo‘lgan mavjud ehtiyojning 75 – 80 foizi ta’minlanyapti xolos. Shu bois kam resurs bilan ko‘p yerni sug‘orish, obihayotning har qatrasini oltin bilib, undan yanada samarali foydalanish bugungi kunning muhim talabiga aylanib ulgurdi.



Suv tanqisligi ortib borayotgan bugungi sharoitda mamlakatimizda mavjud resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning negizini tashkil etadi. Bu haqda 2023-yilning 29-noyabrida Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qator ko‘rsatmalar berilgan edi va ayni vazifalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham hayotga keng tatbiq qilinmoqda.

– Ayni paytda hududdagi 221 nasos stansiyasining 41 tasi davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritib kelmoqda, – deydi Qoraqalpog‘iston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i Kenes Saribayev. – Joriy yilda yana 6 ta nasos stansiyasini davlat sherikligi asosida xususiy sektorga berish nazarda tutilgan.

Bu borada Qorao‘zak tumanidagi “Marxao‘zak” nasos stansiyasida amalga oshirilayotgan ishlarni namuna sifatida tilga olsak arziydi. U 602 gektar maydonni suv bilan ta’minlab kelyapti. Ushbu xo‘jalikda 6 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. E’tiborlisi, joriy yilda yangi nasos dvigatel tufayli 37,3 ming kilovatt-soat elektr energiya tejab qolinishiga erishildi.

Qoraqalpog‘iston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tomonidan hududning shimoliy va shimoli-g‘arbidagi 13 ta tumanning 137,3 ming gektar maydoniga suv yetkazildi. Barcha nasos stansiyalari va ularda o‘rnatilgan 481 dona nasos agregati ayni damda ishlab turibdi. Hamma uskunalar, transformator va elektr uzatish tarmoqlarini texnik soz holatda saqlash borasida keng ko‘lamli ishlar bajarildi. Jumladan, nasos stansiyalarida 115 dona nasos agregati tubdan ta’mirlandi. Zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni joriy qilish maqsadida 1 dona kondensator qurilmasi, 3 dona quyosh batareyasi, 613 metr uzunlikdagi turli kuchlanishli kabel, 1 dona chastota o‘zgartiruvchi qurilma, 7 dona nasos, 6 dona elektrodvigatel o‘rnatildi. Natijada 334,3 ming kVt/soat elektr energiyasi iqtisod qilindi.


Sir emaski, mamlakatimizda ishlab chiqarish sohasi kengayishi hisobiga hududlarda elektr energiyasiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Nasos stansiyalari esa elektr energiyasini eng ko‘p sarf etadigan iste’molchi sanaladi. 2022-yil 5-dekabrda tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq har haftaning juma kuni tumanlardagi nasos stansiyalarida elektr energiyasini tejash, energiya tejamkor uskunalarni o‘rnatish ishlari mas’ullar ishtirokida tahlil qilinmoqda.

Suv xo‘jaligi vazirligi belgilagan vazifalar doirasida boshqarma tomonidan himoya zonalarida yordamchi xo‘jaliklar tashkil etilgan. Ularda 2024-yil davomida 4 gektarda kartoshka, 17 gektarda sabzavot, 4 gektarda loviya, 6 gektarda mosh, 10 gektarda poliz, 30 gektarda boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirildi. Hozirgi kunda 5,3 gektar maydonga boshqa turdagi ekinlar ekildi. Bu ishchi-xodimlarni arzon noz-ne’matlar bilan ta’minlash, qo‘shimcha rag‘batlantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Suv – hayot manbai. Unga yilning to‘rt faslida ham ehtiyoj seziladi. Orolbo‘yi mintaqasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun nafaqat vegetatsiya davrida ekinlarni sug‘orish, balki kuz va qish oylarida sho‘r yuvish uchun ham dalalarga obihayot yetkazish lozim bo‘ladi. Shu jihatdan yoz jaziramasi, qish qahratonida nasos agregatlarining uzluksiz ishlab turishida mutaxassis va ishchi-xizmatchilarning hissasi katta bo‘lmoqda. Zero, suv qancha tejab ishlatilsa, dehqonu sohibkorlar hosiliga shuncha baraka kiradi.

G‘ayrat OTAJONOV
(“Xalq so‘zi”).

QULUPNAYDAN 200 MILLION SO‘M DAROMAD




Intilish

Ishning ko‘zini bilgan kishi uyida turib ham daromad topa oladi. Vobkent tumanidagi “Latifsobungar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi Muxtor Shodiyevning bunga ishonchi komil.

– Tuman hokimligi, mahallamiz mas’ullari qo‘llab-quvvatlashi ortidan tomorqada gidroponika usulida qulupnay yetishtirishni yo‘lga qo‘ydik, – deydi u. – Shu usulda ekinni parvarishlash uchun 200 million so‘m sarflab maxsus issiqxona barpo etdik. Bu sarf-xarajatimiz bir, nari borsa, bir yarim yilda o‘zini oqlaydi.

Bu oilaning Janubiy Koreya texnologiyasi asosidagi issiqxonasi 5 sotixdan iborat. 10 ming tup qulupnay parvarish qilinyapti. Uning salmoqli qismi ko‘chat sifatida sotiladi. Qolgani esa risoladagidek parvarishdan so‘ng ertagi hosil beradi. Tadbirkor shu yo‘sinda ishlab 200 million so‘m atrofida daromad olishni chamalab turibdi. Ixcham issiqxona to‘rt-besh kishining bandligini ham ta’minlagan.

Tomorqadan oqilona foydalanish borasidagi bu tajriba Muxtor Shodiyevning mahalladoshlarini ham qiziqtirib qo‘ydi. Shu yilning o‘tgan davrida 12 nafar fuqaro hokim yordamchisi tavsiyasi asosida bankdan imtiyozli kredit olib, hovlisida ixcham issiqxonalar barpo etdi.



“Xalq so‘zi”.

Toshkent davlat transport universiteti “QS Asia University Rankings – 2025” reytingida «Top – 800» talikka kiruvchi universitetlar qatoridan joy oldi.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

Turistik poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi

MDHga a’zo davlatlar temir yo‘l transporti bo‘yicha kengashning 81-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Uning doirasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi Z. Narzullayev va “Qirg‘iz temir yo‘li” davlat korxonasi rahbari A. Sakiyev o‘rtasida yuk tashish hajmini oshirish va tarif chegirmalarini qo‘llash masalalari bo‘yicha muzokaralar olib borildi.

Shuningdek, ikki davlat o‘rtasida asosiy yuklar – ko‘mir, sement hamda boshqa mahsulotlarni tashishda “Temiryo‘lkargo” AJ yuk-vagon parklaridan foydalanish hamda tarozi xo‘jaligi obyektlarini ta’mirlash masalalari muhokama etildi.

Muloqotda tomonlar o‘rtasida 2025-yil yozida Toshkent – Baliqchi (Ribachye) yo‘nalishida turistik poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yishga kelishib olindi. Va mazkur yo‘nalish ikki mamlakat o‘rtasida turizm aloqalarini rivojlantirishda muhim qadam bo‘lishi qayd etildi.

Bepul chiptalar kimlarga beriladi?

Hukumatning tegishli qarori bilan O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar reestriga kiritilgan fuqarolarga temir yo‘l transportida yoki shaharlararo avtobus uchun bepul chiptalar berish tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ularning o‘z tanloviga ko‘ra temir yo‘l yoki shaharlararo avtobus uchun bepul chiptalar bir yilda bir marta beriladi. Shuningdek, ularni kuzatib borayotgan bir nafar shaxs ham borish hamda qaytish uchun bepul chipta olish huquqiga egaligi belgilandi.

“Yoshlar va turizm” ko‘chasiga marhamat!

Hududlarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun sharoitlar yaratish hamda turizmni rivojlantirish, jumladan, “Yoshlar va turizm” ko‘chalarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti xabariga ko‘ra, Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumanidagi Guliston mahallasi hududida “Yoshlar va turizm” ko‘chasi foydalanishga topshirildi.

Mazkur ko‘chada 2 ta ministadion, 250 o‘rinli tomoshagoh, “Workout”, basketbol, voleybol va harbiy-vatanparvarlik musobaqalarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan maydonlar hamda 50 o‘rinli amfiteatr barpo etilgan.

Bundan tashqari, ko‘cha bo‘ylab 3,4 kilometr uzunlikda veloyo‘lak, gulchilik va ko‘chatchilikka ixtisoslashtirilgan issiqxona ham barpo qilindi.

“Xalq so‘zi”.

BEKATLAR “AQLLI”, YO‘LOVCHILAR-CHI?

Farg‘ona viloyati hokimligi tomonidan bundan uch-to‘rt yil oldin jamoat transportidan foydalanuvchi yo‘lovchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan avtobekatlar faoliyatini bugungi talablar asosida tashkil etish maqsadida xayrli tashabbus ilgari surilgan edi.

Ezgu tashabbus viloyat markazi – Farg‘ona shahrida keng quloch yozib, ellikka yaqin foydalanilmay turgan yoki qarovsiz qolgan avtobekatlarda tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan yengil konstruksiyali yangi inshootlar qad rostladi. Bu bekatlar hududi yosh tadbirkorlarga bepul berilib, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilgandi. O‘z navbatida, yosh tadbirkor ushbu maskanda savdo yoki xizmat ko‘rsatish shoxobchasi bilan birga bepul internet xizmatini yo‘lga qo‘yishi, yozda salqin, qishda issiq bo‘lishi uchun konditsioner o‘rnatishi zarur edi. Shuningdek, yo‘lovchilarga kutish xonasi tashkil etishi va o‘rindiqlar o‘rnatishi kerakligi ham belgilangandi.



Achchiq, ammo ochiq gaplar

Afsuski, mazkur tashabbus doirasida ish boshlagan ko‘p do‘konlar egalari savdosi yurmagani uchun faoliyatini to‘xtatdi. Ba’zi do‘konlar hamon ijara asosida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib kelayotgan bo‘lsa, ayrimlari mavsumiy faoliyat ko‘rsatadi, xolos.

– Hozirgi kunda o‘ttizdan ko‘proq “aqlli” bekatlar bir maromda ishlamoqda, – deydi Farg‘ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi xodimi Nodirbek Mamajonov. – Yigirmatacha bekatda bepul internet xizmati tashkil etilgan. Ammo bekatlarda yo‘lovchilarga qulaylik yaratish bo‘yicha belgilangan vazifalar to‘liq bajarilmadi.

Mavjud vaziyatni o‘rganish uchun tadbirkorlar bilan suhbatlashdik. Ular yo‘lovchilar o‘rindiqlarni sindirib, buzib ketayotganidan yozg‘irishdi. Tabiiyki, bugungi kuchli raqobat sharoitida shundoq ham biznesi yaxshi yurishib ketmayotgan tadbirkorlar bunday ortiqcha xarajatdan aziyat chekmoqda.

Tadbirkorlar jamoat transporti qachon kelib-ketishini ko‘rsatib turuvchi monitorlar ham o‘rnatishgan edi. Ammo oradan hech qancha vaqt o‘tmay ana shu monitorlar o‘g‘irlab ketildi. Farg‘ona shahri markazidagi Sayilgoh, Universitet, Al-Farg‘oniy ko‘chalaridagi “aqlli” bekatlarda o‘rnatilgan monitorlar o‘g‘irlangani bo‘yicha tadbirkorlar ichki ishlar organlariga murojaat qilishgan. Ammo hozircha o‘g‘rilar ushlangani va jazolangani haqida aniq ma’lumot yo‘q.



– Kulishniyam, kuyishniyam bilmaysiz, – deydi Sayilgoh ko‘chasidagi ana shunday bekatlardan birida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor. – Har kuni ertalab yo‘lovchilar uchun o‘rindiqlar o‘rnatilgan xonadan turli yeguliklar, shirinliklar, pista po‘choqlarini tozalayverib charchadim. Xona devorlariga rasm chizib, o‘rindiqlarni tepkilab, buzib ketishlarini aytmasam ham bo‘ladi. Ba’zan shahrimiz mehmonlari yoki xorijlik sayyohlarning bu holatga ko‘zi tushsa, biz haqimizda, xalqimizning turmush madaniyati haqida qanday xayolga borishini o‘ylab o‘z-o‘zimdan xijolat chekaman.

– Jamoat transportidan tez-tez foydalanaman, – deydi Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi Muqimjon Qodirov. – Ammo bunday bekatlarda yo‘lovchilarga yaratilgan sharoit, tozalik talabga javob bermaydi – xona qarovsiz, abgor holatda. Alisher Navoiy ko‘chasidagi ana shunday bekatlarning ba’zilari mavsumiy ishlab, muzqaymoq, bir zumda tayyor bo‘luvchi yeguliklar sotadi. Ammo egalari almashib ketavergani bois ko‘pincha yopiq bo‘ladi. Bu yerda nafaqat yo‘lovchilarga sharoit yaratib bermaslik, balki to‘lov terminallari hamda onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanmaslik holatlari ham uchrab turadi.

Farg‘ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi viloyat avtomobil yo‘llaridan foydalanish boshqarmasi bilan belgilangan me’yorlar asosida ijara shartnomasi imzolagan. Lekin moddiy manfaatdorlik evaziga tadbirkor tomonidan bekatni uchinchi shaxsga foydalanishga berib yuborish holatlari ham mavjud.

Albatta, bu yerda kim faoliyat ko‘rsatishidan qat’i nazar, eng muhimi, yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratilishi lozim. Lekin shaharning eng gavjum maskanlarida joylashgan va yo‘lovchilarga zarur sharoitlar yaratish sharti bilan tadbirkorga “nol” qiymatda ishonib topshirilgan maskanlar faoliyati bugun kutilganidek emas.

Farg‘ona viloyati hokimligi tashabbusida, eng avvalo, jamoat transportining oraliq to‘xtash bekatlarida yo‘lovchilarga zamonaviy sharoitlarni hozirlash maqsad qilingan edi. Afsuski, amalda unday bo‘lmadi. Maqsad kimnidir yomonga chiqarish emas, balki xayrli tashabbus ijrosi to‘liq ta’minlanishi hamda uning yechimiga yana bir bor mas’ullar e’tiborini qaratishdir. Bu esa uddalasa bo‘ladigan ish...

Botir MADIYOROV (“Xalq so‘zi”).

ATOQLI QORAQALPOQ SHOIRI HAQIDA FILM SURATGA OLINMOQDA

Mamlakatimizda buyuk va shonli yo‘lni bosib o‘tgan ajdodlarimiz, ayniqsa, o‘zining boy ijodiy merosi va hayoti bilan xalqimiz qalbiga jo bo‘lgan ziyoparvarlar xotirasiga ehtirom ko‘rsatish, ular qoldirgan xazinani o‘rganish hamda targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Madaniyat

Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-iyulda qabul qilingan “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida ham ana shu ezgu maqsad yo‘lidagi muhim vazifalar belgilangan.

Qayd etish joizki, unda qator tashabbuslar bilan birga davlat buyurtmasi asosida shoir hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi “Ajiniyoz” tarixiy, badiiy-publitsistik filmini yaratish ham ko‘zda tutilgan edi.

Shu munosabat bilan “Qoraqalpoqfilm” ijodkorlari tomonidan Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining talabalik davri o‘tgan tarixiy manzil – Xiva shahrida tasvirga olish jarayonlari davom etmoqda. Ma’lumki, turkman shoiri Maxtumquli, qozoq mutafakkiri Beket ota va boshqa ulug‘lar singari Ajiniyoz ham Ichan qal’adagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgan.

– Taniqli adib Muratboy Nizanov ssenariysi asosida tasvirga olinayotgan ushbu filmdagi shoir siymosi iste’dodli aktyorlar – Armon Barakov va Ko‘pyursin Allanazarov tomonidan gavdalantirilmoqda, – deydi film bosh rejissyori Qudrat Otajonov. – Biz tasvir jarayonlarini amalga oshirayotgan manzildagi Sherg‘ozixon madrasasi, jome masjidi va boshqa tarixiy obidalar ko‘rinishlari, hech shubhasiz, film mazmun-mohiyatini batafsil va jozibador tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonlarda kinoijodkorlarga “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatri, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Xorazm filiali jamoalari ham yaqindan ko‘mak bermoqda.

Otabek ISMOILOV, jurnalist.

QONUN VA MAS’ULIYAT

QADRLI YURTDOSHLAR!

Yer, mulk, uy-joy bilan bog‘liq munosabatlar asrlar osha qadriyatimizga aylanib ulgurgan. 2024-yilning 5-avgust sanasida davlatimiz rahbari vatandoshlarimiz uchun muhim bo‘lgan yana bir tarixiy qonunni imzoladi. Ya’ni bugun 8-noyabrdan ko‘pchilik yurtdoshlarimiz kutgan **“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni** kuchga kiradi.

Ushbu hujjatga muvofiq 2024-2025-yillar uchun tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda kadastr xodimlari tomonidan xatlov ishlari boshlanadi.

Qonun kuchga kirish sanasida sizga murojaat qilishimizdan maqsad **“ogohlikka” chaqirishdir!**

Uzoq yillar davomida o‘zi yashab kelayotgan uyini rasmiylashtirib olishni niyat qilib yurgan halol insonlar ko‘p, ammo vaziyatdan foydalanib, noqonuniy yo‘llar bilan daromad olishni rejalab yurgan **“uddaburonlar”** ham yo‘q emas. Sizlarni bunday nopok kimsalarning har qanday so‘zlari va va’dalariga ishonmaslikka chaqiramiz!

Birinchidan, mahallalar aniq tasdiqlangan reja asosida xatlovdan o‘tkaziladi. Biri qolib, ikkinchisiga o‘tilmaydi, ya’ni odamlar iborasi bilan aytganda, **“tezlashtirib berishning imkoni yo‘q!”**

Ikkinchidan, xatlovdan keyin “E’TIROF” dasturiga kiritilgan har bir holat bo‘yicha 15 dan ortiq vazirlik va idoralar o‘z xulosalarini beradi hamda kosmik suratlar yordamida tahlil qilinadi. Oddiy aytganda, **“ilojini qilib o‘tkazib bo‘lmaydi!”**

Uchinchidan, xatlov jarayonida qonun bilan aniq belgilab berilgan 8 toifaga kiruvchi holatlar o‘rganiladi. Hozirda egallab olib, qurilish qilib, qonuniylashtirib olishni reja qilayotganlar javobgarlikka tortiladi. Xalq tili bilan aytganda, **“tanish-bilish o‘tmaydi!”**

Hurmatli yurtdoshlar, har qanday holatda ham firibgarlik, tamagirlik yoki korrupsiya holatlariga duch kelsangiz, huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bering!

Mazkur qonunning adolatli va samarali ijro etilishi barchamizga birdek bog‘liq ekanini yoddan chiqarmaylik.

Hurmat bilan,

Kadastr agentligi direktori Farrux PO‘LATOV.

E’tirof

“Uzbekistan Airports” Yevropa xalqaro aeroportlar kengashiga qo‘shildi

“Uzbekistan Airports” AJ butun dunyo bo‘ylab aeroportlarni boshqaradigan va 2 mingga yaqin operatorlarni birlashtirgan tashkilot – Yevropadagi xalqaro aeroportlar kengashi (ACI Europe) a’zosi bo‘ldi.



Ta’kidlash joizki, “ACI Europe” aeroportlarning xavfsiz, ishonchli va samarali ishlashini ta’minlagan holda aviatsiya sektorining barqaror o‘sishiga ko‘maklashadi. Ushbu global tashkilotga qo‘shilishning ko‘plab afzalliklari bor. Jumladan, uning resurslari sanoatning ilg‘or tajribalari va xalqaro aeroportlar mutaxassislarining keng tajribasidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, yo‘lovchilar tashuvini yaxshilash, faoliyat standartlarini oshirish va aviatsiya sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish bo‘yicha umumiy maqsadlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

O‘z navbatida, “ACI Europe” aeroportlarda tajriba almashish, konferensiyalar hamda ko‘rgazmalar tashkil etish, innovatsiyalar va texnologik yangiliklarni tatbiq qilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

“Xalq so‘zi”.

Tokioda o‘tkazilgan festivalda O‘zbekistonning boy madaniyati va sayyohlik salohiyati namoyish qilindi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6